

O'RTA OSIYO TA'LIM TIZIMIDA JADIDLAR PEDAGOGIKASI: TADRIJ, TAHLIL VA TENDENSIYALAR

ПЕДАГОГИКА ДЖАДИДОВ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ: ЭВОЛЮЦИЯ, АНАЛИЗ И ТЕНДЕН- ЦИИ

THE PEDAGOGY OF THE JADIDS IN THE EDUCATION SYSTEM OF CENTRAL ASIA: EVOLUTION, ANALYSIS AND TRENDS

AKBAROV ODILJON ERGASHEVICH

Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Markaziy Osiyodagi ta'lim tizimining holati, an'anaviy maktab-madrasalar va rus-tuzem maktablari parallel faoliyati hamda jadid pedagogikasining shakllanishi tahlil qilinadi. Tadqiqotda mustamlakachilik ta'lim siyosatining ta'siri yoritilib, mintaqadagi intellektual modernizatsiya jarayonlari o'rganilgan. Muallif jadidchilik harakatini zamonaviy pedagogik tafakkurning muhim bosqichi sifatida baholab, yangi usul maktablari o'quv dasturlarining jamiyat ijtimoiy ehtiyojlari va tanqidiy fikrlashni shakllantirishdagi rolini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: jadidchilik; jadid pedagogikasi; Markaziy Osiyo ta'limi; ta'lim islohoti; madrasa tizimi; rus-tuzem maktablari; mustamlakachilik ta'lim siyosati; intellektual modernizatsiya.

Аннотация. В данной статье анализируются состояние системы образования в Центральной Азии в конце XIX – начале XX веков, параллельное функционирование традиционных школ-медресе и русско-туземных школ, а также формирование джадидской педагогики. В исследовании освещается влияние колониальной образовательной политики и изучаются процессы интеллектуальной модернизации в регионе. Автор оценивает джадидизм как важнейший этап развития современной педагогической мысли и обосновывает роль учебных программ новометодных школ в удовлетворении социальных потребностей общества и формировании критического мышления.

Ключевые слова: джадидизм; джадидская педагогика; образование в Центральной Азии; реформа образования; система медресе; русско-туземные школы; колониальная образовательная политика; интеллектуальная модернизация.

Abstract. This article analyzes the state of the educational system in Central Asia in the late 19th and early 20th centuries, the parallel functioning of traditional schools-madrasahs and Russian-native schools, and the formation of Jadid pedagogy. The study highlights the impact of colonial educational policy and examines the processes of intellectual modernization in the region. The author interprets the Jadid movement as a crucial stage in the development of modern pedagogical thinking and substantiates the role of new-method school curricula in addressing social needs and developing critical thinking.

Keywords: jadidchilik; jadid pedagogikasi; Markaziy Osiyo ta'limi; ta'lim islohoti; madrasa tizimi; rus-tuzem maktablari; mustamlakachilik ta'lim siyosati; intellektual modernizatsiya.

1. KIRISH (Introduction)

Har bir davr ijtimoiy voqeligida ta'limning rivojlanish shakli, mazmuni va sabablari mavjud bo'ladi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O'rta Osiyoda maorif tizimi asriy an'analarga ko'ra shakllangan, biroq Chor imperiyasi istibdod siyosati ta'sirida keskin o'zgarishga majbur bo'lgan ziddiyatli mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Ta'lim bir tomondan eski maktab va madrasalar, ikkinchi tomondan rus imperiyasi tashkil qilgan rus-tuzem maktablari orqali amalga oshirilgan bo'lib, ular maqsadlari va ijtimoiy-ma'naviy mohiyati jihatidan bir-biriga zid edi. Shu bois ta'lim hududimizda XIX asr oxirining muhim mafkuraviy maydoniga aylandi.

Tadqiqotning dolzarbligi mazkur davrda vujudga kelgan “ilmiy dualizm” (diniy saqlanish va dunyoviy uyg'onishning bir vaqtda mavjudligi) hamda undan jadid maktablari shakllanishi jarayonida namoyon bo'lgan pedagogik tafakkur evolyutsiyasini tizimli yoritish bilan belgilanadi. Natijada “milliy tarbiya” (“milliy pedagogika”) tushunchasi faqat ta'lim usuli emas, balki millatni ma'naviy “qutqarish” konsensiyasi sifatida shakllandi.

2. METODLAR (Methods)

Tadqiqotda tarixiy-pedagogik yondashuv qo'llanildi. Matnda:

- XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi O'rta Osiyoda ta'lim tizimining ikki parallel modeli (madrasalar hamda rus-tuzem maktablari) hamda ularning ziddiyatli ta'siri bosqichma-bosqich tahlil qilinadi;

- manba va mualliflarning fikrlari (masalan, Avloniy, Ahmad Donish, Ostroumov va boshqalar) snoskalaridagi havolalar orqali integratsiya qilinadi;

- hududiy tafovutlar (Toshkent, Buxoro, Samarqand, Xiva) taqqoslash yo'li bilan izohlanadi;

- jadid maktablari metodikasi va darsliklari, shuningdek o'qituvchi kasbining ijtimoiy mavqei evolyutsiyasi mazmunan

solishtiriladi;

- ta'limga kirish imkoniyatlari bo'yicha ijtimoiy to'siqlar va jadidlarning javob choralari konseptual darajada tizimlashtiriladi.

3. NATIJALAR (Results)

3.1. Parallel ta'lim tizimining shakllanishi va ziddiyatli mohiyati

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O'rta Osiyo ta'lim tizimi ziddiyatli xususiyatlarga ega bo'lgan:

1. asriy madrasalar diniy ilmlar markazi bo'lib, dunyoviy taraqqiyotda ilgarilashdan to'xtab qolgani;

2. bosqinchilar ta'sis qilgan rus-tuzem maktablari orqali imperiya mafkurasi kirib kelgani;

3. mahalliy maktablar ustidan rus byurokratik nazorati o'rnatilgani;

4. ta'limda milliy til, madaniyat va diniy ruh muammosi keskinlashgani.

An'anaviy madrasa ta'limi diniy va madaniy bilimlarning saqlanishini ta'minlagan, biroq uning reproduktiv yodlashga asoslangan metodikasi jamiyatdagi intellektual va ijtimoiy talablar o'zgarishiga moslashishda sustkashlikni keltirib chiqargan. Jadidlarning ochiq chaqiriqlari aynan shu muammoni asosiy ziddiyat sifatida ko'rsatadi. Abdulla Avloniy ta'lim mazmuni ko'pincha “oshqioona nazmlar” va “mushkul masalalar” bilan cheklanib, yoshlarning ulardan anglash imkoniyati cheklanganini ta'kidlaydi [18]. Madrasalarda o'qitish ko'pincha yodlash va takrorlashga tayangan: mudarrislar o'zlari o'rgangan mazmun va shaklni deyarli o'zgartirmasdan davom ettirgan, mustaqil fikrlash hamda tanqidiy-kreativ mushohada metodik asos sifatida yetarli rivojlanmagan.

Rus ma'muri Nikolay Ostroumov madrasalar faoliyatini keskin tanqid qilib, musulmon maktablari “bir joyda qotib qolgani”, zamonaviy tafakkurga begona ekanini aytadi [3]. Biroq bu yondashuv siyosiy maqsadlarga yo'naltirilgan bo'lib, jadid hamda boshqa tarixiy sharhlarda madrasalarning ilmiy potentsiali to'liq

inkor qilinmagan: Ahmad Donishning “Navodirul vaqoye” asari kirish qismida uning matematika, geometriya, astronomiya, muzika, tasviriy san’at, tarix va falsafa bo’yicha “mustaqil o’qib” bilim olgani qayd etiladi [19]. Shuningdek, Adib Xolid N. Ostroumov fikrini tanqid qilib, madrasalar diniy tafakkur, tilshunoslik va falsafa sohalarida chuqur bilim markazi bo’lganini, ammo muammo metodning yangi bilimlarga yopiq qolganidadir, deya baholaydi [4].

3.2. Mustamlakachilik ta’lim siyosati: rus-tuzem maktablari va nazorat mexanizmi

Rus istilochi hukumati XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Turkistonni egallagach, mustamlakachilik siyosatini faqat iqtisodiy emas, balki ma’rifiy – ma’naviy sohalarida ham kuchaytirgan. Turkiston general-gubernatori K. P. Kaufman ma’ruzasida mahalliy aholini to’liq bo’ysundirish uchun ularning ongini rus madaniyati bilan “yo’g’urish” zarurligida maktab eng qudratli qurol ekanini qayd etadi [5]. Shundan so’ng rus-tuzem (aralash) maktablari ochilib, ularning platformasi bosqichma-bosqich tuzilgan:

- 1-bosqich: arab yozuvi, Qur’on va o’qish;
- 2-bosqich: rus tili, arifmetika, geografiya, tarix;
- 3-bosqich: Rossiya hayoti, imperator oilasi tarixi, pravoslav dini elementlari haqida bilim.

Tarixchi Daniel Brover fikriga ko’ra, mazkur maktablarning haqiqiy maqsadi ilm berish emas, balki itoatni o’rgatish va o’quvchilarni rus davlatining mahalliy yordamchilariga aylantirish bo’lgan [6]. Bundan tashqari, mahalliy maktablar ustidan nazorat va byurokratik cheklovlar kuchaytirilgan. Turkiston general-gubernatorligi 1880-yillarda diniy maktablarni nazorat qilish uchun maxsus “inspektorlik yo’riqnomasi” ishlab chiqib, hisobot topshirish, muallimlar ro’yxatini tuzish va o’quv dasturini oldindan

tasdiqlatish majburiy qilib qo’yilgani qayd etiladi [8]. Vaqf moliyalari ustidan ham nazorat kuchaytirilib, ko’plab madrasalar moliyaviy erkinlikni yo’qotgan. Masalan, Buxoro amirligida 1900-yilga kelib 380 dan ortiq madrasa faoliyat yuritgan bo’lsa-da, ularning 60 foizi tushum yo’qligi sababli faoliyatini qisqartirishga majbur bo’lgan [9]. Ahmad Donish bu holatni “ilm manbayi bo’lgan madrasa bugun qog’ozbozlik manziliga aylandi. U yerda dars emas, faqat ruxsatnomalar yuradi” mazmunida tanqid qiladi [10].

3.3. Hududiy farqlanish: Toshkent, Buxoro, Samarqand va Xiva

Rus istilosi kechgan davrda ta’lim bir butun tizim ko’rinishiga ega bo’lsa-da, hududlarga ko’ra ichki farqlar mavjud bo’lgan. Ko’lna shaharlar (Shosh/Toshkent, Buxoro, Samarqand, Xiva) ta’limda diniy maktab va madrasa an’analari hamda rus siyosati ta’siri ostida turli ijtimoiy mazmun va yuklamaga ega bo’lgan.

• Toshkent va Farg’ona vodiysi: “modernlashuv eshigi” vazifasini o’tagan. Rus-tuzem maktablari bu hududlarda avval ochilib, rus o’qituvchilari va musulmon muallimlar birgalikda ishlay boshlagan. An’anaviy fanlar (fiqh, nahv, sarf, mantiq) asosiy o’rinda turgani bilan birga, ayrim ustozlar hisob, geografiya, tarix kabi yangi fanlarni jadvalga kiritgan [16]. Biroq tizimda mazmuniy uyg’unlik va yagona o’quv standarti hali to’liq shakllanmagan.

• Buxoro: diniy markaz sifatidagi roli tufayli madrasalar soni ko’p bo’lgan, ammo mazmun jihatidan torlik kuchaygani qayd etiladi. Buxoroda asosiy fanlar fiqh, hadis, tafsir, mantiq, sarf-nahv, balog’atdan iborat bo’lib, dunyoviy fanlarga o’rin kam bo’lgan. Ahmad Donishning “Bizning madrasada har kuni bir varaq ‘Sharh Jomi’ni yodlar edik... Bilim emas, itoat muhim edi” mazmunidagi fikri bu holatning mohiyatini ochib beradi [4].

- Samarqand: tarixdan ilmiy markaz

sifatida tanilgan bo'lsa-da, XIX asr oxiri – XX asr boshida mavqei pasaygan. 1900-yillardan keyin Rossiya ta'siri kuchayishi bilan dunyoviy fanlar haqida gapira boshlagan ma'rifatchilar paydo bo'lgani, ammo jarayon sekin kechgani ko'rsatiladi [6]. Mahmudxo'ja Behbudiy va Abdurauf Fitrat aynan bu davrda o'quv dasturiga dunyoviy fanlarni kengroq kiritish zarurligini e'lon qilgan [7].

- Xiva: yopiq va konservativ model sifatida tasvirlanadi. 1908-yilgi rus konsuli hisobotida Xiva aholisi orasida o'qimishli kishilar ko'pligi, lekin bilim doirasi shariat chegarasidan chiqmasligi, dars yuklamasi matndan iboratligi va mazmunning hayotdan uzilganligi qayd etiladi [9].

3.4. O'qituvchi kasbining ijtimoiy mavqei: ikki qutb va pedagogik inqilob.

Ta'lim jarayoni o'sha davrda tizimdan ko'ra shaxsga tayanishi sababli pedagoglarning dunyoqarashi, diniy savodi va ijtimoiy o'rni maktab sifatini belgilagan. Davrda pedagoglik kasbi ikki qutbda namoyon bo'lgan:

1. an'anaviy mudarrislar — diniy ilmlar o'qituvchisi;

2. yangi jadid muallimlari — dunyoviy fanlarni o'rgangan, xalqni ma'rifat orqali uyg'otmoqchi bo'lgan ziyolilar.

An'anaviy mudarrisni tayyorlash tizimida alohida maxsus tayyorgarlik maskani bo'lmagani, o'qitish huquqi ustoz ruxsati bilan belgilangani, Ahmad Donishning "O'qituvchi bo'lish uchun ilm emas, sabr kerak" mazmunidagi ta'rifi keltiriladi [1]. Mudarrisning moddiy ta'minoti ham barqaror bo'lmagan: madrasalarda mudarrislariga maosh tayinlanmagan, ularning yashash manbayi zakot, sadaqa va o'quvchi oilalarining hadyalari bo'lgan [3]. Bu esa ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatgan.

Rus-tuzem maktablarida esa o'qituvchilik tarkibi farqlangan: rus o'qituvchisi yuqori davlat maoshi bilan, mahalliy musulmon muallim esa ikkinchi darajali, past maoshli sharoitda ishlagan [5]. Bu qarama-qarshilik

ikki xil dunyoqarashni ifodalagan: biri ilmiy, biri ma'naviy. Jadidlar paydo bo'lishi bilan muallimlik kasbi yangi ma'naviy mazmun kasb eta boshlagan: endi muallim faqat dars beruvchi emas, millatni uyg'otuvchi va ma'rifat targ'ibotchisi sifatida qaraldi. Munavvarqori Abdurashidxonov "millatni savodsizlik zindonidan chiqarish" muallimlik burchi ekanini ta'kidlaydi [7].

3.5. Metodika va o'quv vositalari: yodlashdan tushunishga o'tish

Hudud madrasalarida o'qish-o'qitish og'zaki yodlash, eslab aytish va matn talqini asosida qurilgan bo'lib, yozma mashqlar, amaliy ko'nikmalar, mantiqiy tafakkurga asoslangan metodlar yetarli emas edi. Shu zaif bo'g'in aynan jadidlar islohotida metodika va darslik yaratish hamda yangilash orqali bartaraf etila boshlagani ta'kidlanadi.

An'anaviy madrasalarda "talqin va yodlash" tamoyili (reproduktiv metod) ustun bo'lgan. Buxorolik Ahmad Donish buni keskin qoralab: "Ostoz dars bermaydi, o'qiydi... o'quvchi esa yozmaydi, faqat tinglaydi... tushungan narsani esa yozolmaymiz" mazmunidagi fikrlarni beradi [1]. Darsliklar ko'pincha qo'lda ko'chirilgan manbalardan iborat bo'lib, yillar talab qilinishi mumkin bo'lgan; darsliklar yangilanmasdan asosan ko'chirish orqali davom etgan [2].

Jadidlar "usuli jadid" (yangi usul) metodik tizimini yaratib, uni sinf tizimi, dars jadvali, fanlar ketma-ketligi, yozma mashqlar va ko'rgazmali vositalar, yodlash o'rniga tushuntirish metodi ustiga qurgan. Jadid maktabida bola yozadi, o'qiydi, o'ylaydi; eski maktabda esa yodlaydi va jim turadi degan kontrast ifodalangan [5]. Mahmudxo'ja Behbudiy yangi usul maktablarida o'qish-yozish, hisob, tarix, geografiya, tabiat, axloq darslarini yo'lga qo'yish hamda Qur'on va hadis asosida axloqiy darslar o'tilishini belgilagan [6]. Toshkentdagi yangi usul maktablarida ko'rgazmali xaritalar, globus va abaka (hisob taxtasi) kabi vositalarning joriy etilishi ham qayd etiladi [8]. Bu didaktik

uygʻonish jarayoni sifatida talqin qilinadi.

Shuningdek, 1900–1917 yillarda jadid pedagoglar oʻzlari yozgan darsliklarni chop ettirgan. Eng mashhurlari qatoriga Abdulla Avloniy (“Turkiy guliston yoxud axloq”, 1913), Behbudiy (“Kitobat ul-atfol”, 1912), Abdurashidxonov (“Usuli jadid darsligi”, 1904), Fitrat (“Rahbari najot”, 1915) kiritiladi [7]. Bu darsliklarda axloq, vatanparvarlik, ilm, kasb-hunar tushunchalari diniy mazmun bilan bir qatorda ijtimoiy taraqqiyotga bogʻlangan holda talqin etilgani qayd etiladi.

Turkiston maorif boshqarmasi hisobotlarida qishloq maktablarida mavsumiy davomat (ekish va yigʻim-terim paytida bolalarning maktabdan uzilishi) muntazam qayd etilgani koʻrsatiladi [8]. Bu jarayon Shoʻro davrida ham maʼlum shaklda davom etganligi, biroq uning sabab-lari bosqichma-bosqich oʻzgargani (ilgari oilaviy ehtiyoj, keyin davlat ehtiyojlari) bayon qilinadi.

3.6. Taʼlimga kirish imkoniyatlari: toʻsiqlar va jadidlarning javoblari

Taʼlimga kirish imkoniyatlari jins, tabaqa, hudud, til va maktab tipiga koʻra tabaqalangan. Qizlar, kambagʻallar, qishloq aholisi va ruscha savodi yoʻqlar eng koʻp cheklangan guruhlar boʻlgani qayd etiladi. Vaqf moliyasining beqarorligi, metodik standartlarning yoʻqligi ham kirishni toraytirgan.

Jadidlar ushbu cheklovlarga uch darajada yondashgan:

1. tizimiy daraja - maktablar va darsliklar yaratish orqali (infratuzilma islohoti);
2. maʼnaviy daraja - “ilm savob emas, hayot” mafkurasi orqali (ideologik isloh);
3. ijtimoiy daraja - ayollar, kambagʻallar va qishloq aholisi uchun kirishni kengaytirish orqali (ijtimoiy kengayish).

Natijada 1917-yilgacha taʼlimga kirish siyosiy va maʼnaviy ong oʻzgarishi bilan uzviylashib, sovet davrining ommaviy savodxonlik siyosatiga tayanch sifatida xizmat qilgan, degan xulosa asoslanadi.

4. MUHOKAMA (Discussion)

Mazkur tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Oʻrta Osiyoda taʼlim tizimi faqat “taʼlim mazmuni” masalasi emas, balki mustamlakachilik siyosati va milliy intellektual modernizatsiya oʻrtasidagi kurash maydoniga aylangan. Madrasalar tizimi diniy va madaniy merosni saqlagan holda, reproduktiv yodlash metodikasi orqali yangi davr talablariga moslashishda qiyinchiliklarga uchragan. Rus-tuzem maktablari esa imperiya mafkurasi kirib kelishi, til siyosati va nazorat mexanizmlari orqali mahalliy ongni qayta shakllantirishga xizmat qilgan [5], [6], [8].

Shu bilan birga, madrasalarni faqat “jaholat oʻchogʻi” sifatida talqin etish ham xolis yondashuv boʻlmaydi. Ahmad Donish va boshqa manbalar madrasalarda ilmiy bilimlar boʻlganini koʻrsatadi [19]. Kritik masala metodning yangi bilimlarga ochiqligi va taʼlim mazmunining amaliy hayot, ijtimoiy ehtiyojlar hamda tanqidiy fikrlash bilan bogʻlanmaganligida ekanligi jadid qarashlarida ham, tadqiqotda keltirilgan tahlillarda ham aks etadi [4], [1].

Hududiy farqlanish (Toshkentda nisbiy modernlashuv, Buxoro va Xivada konservativ yoʻnalish, Samarqandda isloh gʻoyalari ildiz otganligi) jadidlarning pedagogik yondashuvi nega turli surʼatlarda singganini tushuntiradi. Shu bois “bir xil turgʻunlik” tushunchasi oʻrniga ichki murakkablik mavjud boʻlgani metodik jihatdan asosli koʻrinadi.

Muallimlik kasbining transformatsiyasi esa jadid islohotlarining eng muhim natijalaridan biri sifatida talqin etiladi. Anʼanaviy mudarrislik “Avlodiy uzluksizlik” va ustoz ruxsati tizimiga tayangan boʻlsa [1], rus-tuzem maktablarida oʻqituvchi ijtimoiy tizimga bogʻlangan, ammo millat ruhidan uzoqroq boʻlgan [5]. Jadid davrida esa muallim millatni uygʻotuvchi ijtimoiy kuch sifatida qayta taʼriflanib, “Pedagogik inqilob” konsepsiyasi shakllangan.

Natijada taʼlim metodikasi ham oʻzgaradi: yodlash va talqin amaliyotidan koʻrgazmali

vositalar, yozma mashqlar, tushuntirish metodi, vaqtli dars jadvali va fanlar ketma-ketligi tizimiga o'tish jadidlar tomonidan "Usuli jadid" orqali amalga oshirilgan [5], [6], [8]. Darsliklarning yangilanishi esa ta'limga ijtimoiy ong va milliy fikrning kirib kelishiga xizmat qilgan [7].

5. XULOSA (Conclusion)

Umuman olganda, jadid pedagogikasi O'rta Osiyoda "ilmiy dualizm"dan chiqqan

holda, diniy saqlanishni rad etmasdan, uni ijtimoiy-siyosiy va hayotiy ehtiyojlar bilan uyg'unlashtirishga yo'naltirilgan modernizatsiya strategiyasi sifatida namoyon bo'ladi. Ta'limga kirishning jins, tabaqa va hudud bo'yicha cheklanganligi sharoitida jadidlar tizimiy, ma'naviy va ijtimoiy darajada javob choralarini ishlab chiqqanlari 1900-1917 yillardagi tarkibiy o'zgarishlarni izohlashga yordam beradi.



Foydalanilgan adabiyotlar :



1. Khalid, A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. Berkeley: University of California Press, 1998.
2. Allworth, E. Central Asia: 130 Years of Russian Dominance. Durham: Duke University Press, 1994.
3. Brower, D. Turkestan and the Fate of the Russian Empire. London: Routledge, 2003.
4. Abdurashidxonov, M. "Maktab va maorif to'g'risida." Taraqqiy, 1903.
5. Behbudiy, M. Padarkush (1911); "Kitobat ul-atfol" (1912).
6. Kamp, M. The New Woman in Uzbekistan: Islam, Modernity, and Unveiling under Communism. Seattle: UW Press, 2006.
7. Ayni, S. Esdaliklar. Dushanbe, 1949.
8. Turkiston General-Gubernatorligi Maorif boshqarmasi yillik hisobotlari, 1909–1911. O'zR FA Arxivi: f.102, op.3, d.7; d.11.
9. Brower, D. "Russian Roads to Central Asian Modernity." In: Between Tsar and People, ed. E. Lahusen, 1997.
10. Nalivkin, V. Ocherki byta Sredney Azii. Sankt-Peterburg, 1893.
11. Ostroumov, N. P. Russkaya shkola v Turkestane. Toshkent, 1895.
12. Vyatkin, V. L. "Xiva xonligida maktab va madrasa holati." Rossiya konsullik hisobotlari, 1908.
13. Meyer, J. "Volga–Crimean Tatar Networks and Jadid Schooling." Cahiers du Monde Russe, 2002.
14. Zand, M. "Bukharan Jews' Education." Encyclopaedia Iranica, 1990.
15. Becker, S. L. Russia's Protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva, 1865–1924. Cambridge, 1968.
16. Qosimov, B. O'zbek ma'rifatparvarligi tarixi. Toshkent: OME, 2019.
17. G'aspirinskiy, I. Rus musulmonlari va Tarjuman maqolalari to'plami, 1883–1906.
18. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar, 2-jildlik. 1-jild. T.: Ma'naviyat, 2009. 82-bet.
19. Аҳмад Дониш. Наводирул вақое. Т.: Фан, 1964. 10-бет.
20. ЎРҚ-901 01.02.2024 Pedagogning maqomi to'g'risida <https://lex.uz/pdfs/6786401>